



ASPEKTUALLIK FUNKSIONAL-SEMANTIK MAYDONINING TUZILISHI VA FE'LNING CHEGARALANGANLIK/CHEGARALANMAGANLIK (AKSIONAL) SEMANTIKASI

Karimova M. Ya
SamDChTI doktoranti

Annotatsiya. xususiyatlari funksional-semantik maydon (FSM) doirasida tahlil qilinadi. Aspektuallikning leksik, morfologik, sintaktik va kognitiv-pragmatik jihatlari o‘zaro bog‘liq sistema sifatida yoritiladi. Bondarko nazariyasi asosida aspektual birliklarning semantik ierarxiyasi va ularning harakat tarzi bilan munosabati izohlanadi. Turli tillarda fe’lning aksional xususiyatlari va aspektual vositalarning tadqiqi asosida harakat tarzining keng qamrovliligi hamda grammatik shakllargina bilan cheklanmasligi asoslab beriladi.

Аннотация. В статье анализируются особенности предельности/непредельности глагола в рамках теории функционально-семантического поля (ФСП). Аспектуальность рассматривается как система, объединяющая лексические, морфологические, синтаксические и когнитивно-прагматические уровни языка. На основе теории Бондарко раскрывается семантическая иерархия аспектуальных средств и их связь с акциональностью. Сопоставительные исследования подтверждают, что характеристика действия обладает широким охватом и не ограничивается только грамматическими формами.

Annotation. The article examines the boundedness/unboundedness features of verbs within the framework of the functional-semantic field (FSF) theory. Aspectuality is described as an interconnected system involving lexical, morphological, syntactic, and cognitive-pragmatic levels. Based on Bondarko’s theory, the semantic hierarchy of aspectual markers and their relation to actionality is outlined. Cross-linguistic studies show that the nature of actionality is broad and cannot be reduced solely to grammatical forms, emphasizing the need for comprehensive analysis of verbal semantics.

Kalit so‘zlar: Aspektuallik, funksional-semantik maydon, fe’l semantikasi, chegaralanganlik, chegaralanmaganlik, aksional xususiyat, harakat tarzi, Bondarko nazariyasi, leksik-morfologik munosabat, kognitiv-pragmatik yondashuv.

Ключевые слова: Аспектуальность, функционально-семантическое поле, семантика глагола, предельность, непредельность, акциональность, способ действия, теория Бондарко, лексико-морфологические связи, когнитивно-прагматический подход.

Keywords: Aspectuality, functional-semantic field, verb semantics, boundedness, unboundedness, actionality, manner of action, Bondarko’s theory, lexical-morphological correlation, cognitive-pragmatic approach.

INTRODUCTION.

Til hodisalariga nisbatan funksional-semantik yondashuv leksik va morfologik yaruslarning munosabatini o‘rganish ko‘lamiga o‘tish demakdir. Shuning uchun ham qaysi tilda bo‘lmasin, fe’lning leksik, uning chegaralanganlik/chegaralanmaganlik belgilari ma’lum leksik-semantik guruhga mansubligi bilan hosil bo‘lgan grammatik shakllarning aloqadorligini aniqlash masalasining qo‘yilishi tasodifiy emas. Tilning grammatik kategoriyalarida yuzaga chiqadigan grammatik imkoniyati leksik semantikada denotativ ma’nolar bilan kategorial-grammatik ma’nolar birligida belgilab qo‘yilgandir.

Tilshunoslikda til hodisalariga nisbatan funksional-semantik yondashuv leksik va morfologik



yaruslarning munosabatini o‘zaro bog‘liq tarzda olib borishga qaratiladi. Aspektologik tadqiqotning funksional-semantik maydonda tahlil etilishida predikat vazifasidagi fe‘ning aksional (chegaralanganlik/chegaralanmaganlik) semantikasiga asoslanilishi barobarida kontekstdagi boshqa til birliklarining predikatga ta‘siri ham e‘tiborga olinadi. Aspektuallikning funksional-semantik maydonda aniqlanishida fe‘ning aksional xususiyatlari ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu borada B.H. Rizaev (1999) nemis tili aspektual tizimini o‘rganar ekan, aspektologik fe‘l leksemalari aksional tasnifini uch guruhga ajratishni taklif qiladi. Bunda fe‘l leksemalarining chegaralanganlik/chegaralanmaganlik xususiyatlaridan tashqari limitativ neytral fe‘llar guruhi ham ajratiladi. Xuddi shunga uxshash yondashuvchi ingliz va o‘zbek tillari misolida G‘.Mirsanovda uchratish mumkin. A. Muminova ham nemis tilidagi yurish harakat fe‘llarini aksional guruhga ajratadi.

Maqolada FSM doirasidagi aspektuallik tadqiqotlari morfologik, sintaktik, leksik va hatto so‘z yasovchi vositalarni o‘z ichiga olgan bir sistema sifatida qaralishi qayd etiladi. FSM tarkibiga holatni bildiruvchi uzoq, darhol, doim, tez-tez kabi sintaktik vositalar ham kiritilishi, bu maydonning kengligini ta’kidlaydi.

So‘nggi yillarda aspektuallikni kognitiv va pragmatik jihatdan o‘rganish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ya‘ni, harakatning zamon va makonda rivojlanish xarakterini ifodalovchi lisoniy vositalar o‘sha til sohiblarining dunyoqarashida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan harakat kechimini bildiruvchi birliklarning farqlanishi bilan bog‘lanishi mumkin (E. Paduchuva, G‘. Mirsanov kabi olimlar ishlari).

Ontologik jihatdan keng va asosli nazariy taklif A.V. Bondarkoning funksional-semantik maydon (FSM) nazariyasi sanaladi. FSMning tahlil metodi quyidagilarga asoslanadi: 1) aspektuallik, zamonning moslashuvi, taksis; 2) temporallik, modallik; 3) personallik, nisbat; 4) obyektivlik, ob‘ektivlik, nutqning kommunikativ tarkibi; 5) sifatiiy xususiyatlar, miqdor, komparativlik, posesivlik; 6) lokativlik, shartlilik maydoni majmui.

Ushbu tadqiqotlardan anglashiladiki, fe‘ning chegaralanganlik va chegaralanmaganlik xususiyati harakat tarzi semantic guruhlari farqlanishida ham muhim o‘rin tutadi. Shunga o‘xshash farqlanishlar ba’zi tillarda grammatik shakllarda ham ahamiyatli hisoblanadi. Jumladan rus tilida chegaralanganlik va chegaralanmaganlik qarama-qarshiligi fe‘llarning ved kategoriyasi yasallishida namoyon bo‘ladi.

Umumiy va qiyosiy aspektologiyada funksional-semantik aspekt maydon aspektuallik belgilari semantik ierarxiyasi masalalari muhokama qilishda asosiy vazifani bajaradi. Bu asosanondashuv aspektual guruhlari aniqlik va mavhumlik ma’nolari tuslar o‘rtasidagi munosabatda va matn tashkil topishidagi vazifalarni aniqlaydi.

Qayd etish joizki fe‘llarning leksik semantikasi predikant turlarini tavsiflashda muhim o‘rin tutishi mumkin. Bu borada keyingi fasllarda alohida to‘xtalamiz. Albatta, yuqorida qayd etilgan o‘zbek tiliga xos lisoniy unsurlar funksional-semantik maydon doirasida olib borilishi fe‘l kategoriyalariga e‘tibor qaratish harakat tarzini alohida kategoriya sifatida o‘zbek tilida namoyon bo‘lishini ochib berish mumkin. Funksional-semantik maydonida grammatik bo‘lmagan jihatlar yoki fe‘ning chegaralanganligi/chegaralanmaganligi qarama-qarshiligi e‘tiborga olinishi zarur. Bu o‘z navbatida harakat tarzining keng qamrovli ekanligidan dalolat beradi hamda ma’lum grammatik shaklga tayanib ish ko‘rishi mumkin emasligi oydinlashadi. Shuningdek, fe‘llarning leksik-semantik ta‘sirini, ya‘ni harakat va holat fe‘llarini o‘rmini aniqlash muhim. Umuman olganda aspektologiya sohasiga oid tadqiqotlar turli tillarda B.M. Nasilov, A.A.Yuldashev, L. Yuxanson, V. Guziyev, V.P.Nedyalkov, B.Rizayev, A.Nurmuxammedov, G‘.Mirsanov kabilar tomonidan olib borilgan. Ular aspektuallikning grammatik ko‘rsatkichlarida tashqari harakat tarzi semantikasiga ham e‘tibor qaratiladi. Ular fe‘llarning semantik qiyoslanishi bilan bog‘liq masalalarni chuqurroq muhokama qilishgan. Ushbu tadqiqotlar funksional-semantik maydon nazariyasi doirasida nazariyasi doirasida amalga oshirilgan. Aspektuallik nazariyasi keyingi yillarda kognitiv va pragmatik jihatdan o‘rganish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aspektuallik kognitiv mohiyati sifatida har bir tilda harakatning zamon va makonda rivojlanish hamda taqsimlanish xarakteri ifodalovchi vositalar o‘sha til sohiblarida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan harakat kechimini bildiruvchi lisoniy birliklarning farqlanishi bilan bog‘lash mumkin. Bu borada E. Paduchuva, V. Evks, G‘. Mirsanov va boshqalarning ishlari misol bo‘la oladi. Aspektuallik semantik maydon o‘zaro munosabatga kirishadigan morfologik, sintaktik, so‘z yasovchi, leksik, grammatik va hokazo lisoniy vositalar orqali yasalladi. Bu vositalar semantik funksiyalarning o‘zaro birlashishi aspektuallik semantik maydonini



shakllantiradi. Mazkur funksiyalar aspektual semantikani tasniflashda muhim o‘rin tutadi. Bunday, aspektuallik maydonning asosiy ponentlari sifatida fe‘l va unga ta’sir etadigan boshqa kategoriyalar o‘rni aniqlanadi. Mazkur maydon turli xil mazmunga ega bo‘lgan morfologik birliklarni birlashtiruvchi sistema sifatida qayd etish mumkin. Ushbu sistema komponentlarda leksik-grammatik turlar ya’ni harakatning boshlanishini anglatuvchi fe‘lli birikmalar qo‘shimcha aspektuallik funksiyasiga ega sintaktik vositalar holatni denamikligini bildiruvchi uzoq, darhol, doim, sekin, tasodifan, ancha, tez-tez kabilar kiritiladi. Shu bilan birga aspektuallik maydoni tarkibining shakllanishi har har bir konkret tilda aspektual komponentlarning qaysilari hal qiluvchi rol o‘ynashiga hamda mazkur tilda aspektual vositalarni o‘z atrofiga birlashtiruvchi aspekt kategoriyasini mavjud yoki yo‘qligiga bog‘liq.

Ushbu maqola tilshunoslikda fe‘lning leksik va grammatik xususiyatlarini FSM nazariyasi doirasida o‘rganish zarurligini asoslaydi. U fe‘lning chegaralanganlik/ chegaralanmaganlik xususiyatini faqat morfologik emas, balki tilning barcha sathlarida o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish, shu orqali harakat tarzining murakkab va keng qamrovli mohiyatini ochib berish mumkinligini ta’kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бондарко А. В. Лимитативность как функционально-семантическое поле // Теория функциональной грамматики. Введение. Аспектуальность. Временная локализованность. Таксис. – Л., 1987. – С.48-79.
2. Падучева Е.В. Динамические модели в семантике лексики. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. –608 с.
3. Rizayev B.X. Finitiv semali turg‘un so‘z birikmalari (nemis va o‘zbek tillari materialida). O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDCHTI, 2022. – 175 b.
4. G‘.Mirsanov “Diskurs tarkibida aspektual va temporallik mazmun ifodasi”. Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori. DSc. 2018. – B. 40.
5. Муминова А.О. Ҳозирги замон немис ва ўзбек тилларида юриш-ҳаракат феълларининг аспектуал семантикаси. Филология фанлари номзоди ... дисс. – Самарқанд, 2021. – 171 б
- ?? Absamadova, M. I. (2024). Exploring the language of diplomacy: Understanding the significance and evolution of diplomatic terms. *Miasto Przyszości*, 49, 1315-1318.
- ?? Isroilovna, A. M. (2022). Methodological frameworks in written translation. In *Online-Conferences" Platform* (pp. 37-40).
- ?? Absamadova, M. (2024). Structural Analysis of Diplomatic Terminology: Single-Component Vs. Multi-Component Terms. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*.
- ?? Isroilovna, A. M. (2024). The impact of diplomatic language on international relations: A comprehensive analysis. *International Journal of Formal Education*, 3(5), 504-507.
- ¹ Absamadova, M. I. (2021). Games in the Teaching of English. *Экономика и социум*, (4-1 (83)), 43-47.
- ¹ Халимова, Ф. Р. (2021). КОГНИТИВ ПОЭТИКА. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 133-142.
- ¹ Rustamovna, H. F. (2020). KEY CONCEPTS OF SIMULTANEOUS TRANSLATION. В научный сборник вошли научные работы, посвященные широкому кругу современных проблем науки и образования, вопросов образовательных технологий 2020.-436 с., 232.